YANGI O’ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIDA NAQT PUL MUAMMOSI

Tursunov Eldor Valijonovich, Jizzax Sambhram universiteti
MBA 1-kurs magistranti



Annotatsiya

Mazkur tezisda yangi O’zbekistonda tadbirkorlarga yaratilgan shart sharoitlar va ularda oldi sotti ishlarida uchraydigan naqt pul muammolari yoritilgan. Bu muammolarni hal qilishda yangi tadbirkorlarga (bozorlarda) va axolining quyi qismiga elektiron tulov tizimlari haqida yetarlicha ma`lumot berilmaganligi, bu esa xozirgi kunda ham naqt pulga bo’lgan talabning yuqoriligiga olib kelmoqda. Shundan kelib chiqib axoling naqt pulga bo’lgan extiyojni qondirish va qo’shtirnoq ichidagi tadbirkorlar qo’lida naq pul massasi yig’ilib qolishining oldini olish yuzasidan pul savodhonligini oshirish masalalari keltirib o’tilgan.

Kalit so‘zlar: Naqt pul, tadbirkor, bozor, elektiron tulov,

Аннотация

В данной диссертации описываются условия, созданные для предпринимателей в новом Узбекистане, и проблемы с наличными деньгами, возникающие при их деловых операциях. При решении этих задач новые предприниматели (на рынках) и низшая часть населения не получают достаточной информации об электронных платежных системах, что приводит к высокому спросу на наличные деньги даже сегодня. Исходя из этого, были затронуты вопросы повышения денежной грамотности в целях удовлетворения потребности населения в наличных деньгах и предотвращения накопления наличных денег в руках предпринимателей региона.

Ключевые слова: Наличные деньги, предприниматель, рынок, электронный платеж,

Annotation

This dissertation describes the conditions created for entrepreneurs in the new Uzbekistan and the problems with cash that arise in their business transactions. In solving these problems, new entrepreneurs (in the markets) and the lower part of the population do not receive sufficient information about electronic payment systems, which leads to a high demand for cash even today. Based on this, the issues of increasing monetary literacy were addressed in order to meet the population's need for cash and prevent the accumulation of cash in the hands of entrepreneurs in the region.

Key words: Cash, entrepreneur, market, electronic payment,

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng iqtisodiy islohotlar amalga oshirishning dastlabki davrlaridan boshlab, hukumat pul-kredit munosabatlariga katta e’tibor berib kelmoqda, chunki biror davlat pul sohasidagi munosabatlarni yo‘lga qo'ymasdan iqtisodiyotni to'laqonli rivojlantira olmaydi.

Tashqi iqtisodiy munosabatlar va ichki aloqalarning Respublikamiz tanlagan bozor iqtisodiyoti yo‘liga mos ravishda rivojlanishining pul munosabatlarining rivojlanish darajasiga bog’iqligini alohida ta’kidlab o‘tish zarur.

Naqd pul muomalasi bo‘yicha qisqacha sharh: Pulning paydo bo`lishi tarixi va rivojlanish jarayonining boshlanishi miloddan avvalgi 7-8 ming yillarga to`g’ri keladi. Avval odamlar o’zlariga zarur maxsulotlarni bir birlari bilan o’zaro kelishuv asosida ayir boshlashgan. Keyinchalik, ayri boshlash vositasi shakli va tabiati o`zgargan.

Pul tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning uzoq vaqt rivojlanishi natijasida vujudga keldi. Pulning iste`mol qiymati shuki, u o`z funksiyasini bajarib iqtisodiyot mushkulini oson qiladi (vositachi sifatida). Pulning qiymati (qadr qiymati) deganda pul birligining xarid qilish qobiliyati, ya`ni unga qancha tovar va xizmatlar xarid etish mumkinligi tushuniladi.

Pul xarakati— pulning bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmatlar, sotib olingan tovarlar haqini to‘lash, hisob kitoblar va to‘lovlarni amalga oshirish, nafaqalar berish, qarzlarni qaytarish vositasi sifatida foydalanish jarayonidagi uzluksiz harakati. Pul muomalasi har bir mamlakat pul tizimi

miqyosida amalga oshadi. Pul muomalasi naqd va naqd bo‘lmagan xarakatga bo‘linadi. Naqd pul bankdan chiqqach, korxona, tashkilotlar g’aznasiga va aholi qo‘liga o‘tadi. Oldi-sotdi va to‘lov harakatlari bajarilgach, yana bankka qaytadi. Naqd bo‘lmagan pul muomalasiga firma, korxona, tashkilotlarning bankdagi hisobida turgan pulning harakati kiradi va bunday muomala chek, kredit kartochkasi, veksel, obligatsiya, sertifikat va boshqa vositalar harakati shaklida olib boriladi.

Pulning ahamiyati ko`p qirrali.


• Pul yalpi ichki mahsulotni (YAIM) yaratish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarida ishtirok etib, ijtimoiy kapitalning aylanishiga vositachilik qiladi.

• Pul makroiqtisodiy muvozanatning muhim omilidir. Milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli muvozanatli o`sishiga erishish pulga talab va taklifni muvozanatlashtirmasdan imkonsizdir. Bu iqtisodiy o`sish sifatini oshirish, uning yuqori va barqaror sur’atlarini saqlab qolish uchun zaruriy shart bo`lib xizmat qiladi.

2024 yil yanvar-iyun oylarida milliy statistika ma`lumotiga ko’ra umumiy pul tushumlari 385 trln. so‘mni tashkil etib, 2023 yilning mos davriga nisbatan 30 foizga o‘sgan.

Hisobot davrida, umumiy pul tushumlarida terminal orqali tushumlar ulushi 2023 yil I yarim yilligidagi 38 foizdan 41 foizga o‘sib, uning tarkibida savdo va xizmatlar sohasidan terminal tushumlari salmog‘i 40 foizdan 45 foizga o‘sishi kuzatildi.


trln.so‘mda



1-rasm: Umumiy pul tushumlari tarkibi va dinamikasi

2024 yil yanvar-iyun oylarida banklar orqali naqd pul aylanmasi hajmi 458 trln. so‘mni (naqd pul tushumlari – 227 trln.so‘m, berilgan naqd pullar – 231 trln.so‘m) tashkil etgani holda, 2023 yilning mos davriga nisbatan 24 foizga oshdi.


trln.so‘mda



2-rasm: Naqd pul tushumlari hajmi va tarkibi dinamikasi

Banklarga naqd pullar tushumining tarkibiy tuzilishida keskin o‘zgarishlar kuzatilmadi.

trln.so‘mda



3-rasm: Banklardan naqd puldagi chiqimlar hajmi va ularning maqsadlari bo‘yicha tarkibiy dinamikasi

2024 yil yanvar-iyun oylarida bank kartalariga 468 trln. so‘m mablag‘lar kirim qilingan. Bu ko‘rsatkich 2023 yil mos davriga nisbatan 1,3 barobarga oshdi va ushbu davrda bank kartalaridagi 107 trln. so‘m mablag‘lar naqdlashtirib olingan.

Bu statistik ma`lumotlardan shu narsa ko’rinib turibdiki 2024 yil yanvar-iyun oylarida va o’tgan yilning mos davriga ko’ra aholida naqt pulga bo’lgan extiyojlari oshib borgan.

Mamlakatimizda pul aylanishining asosiy qismi naqd pulsiz hisob - kitoblarga to'g'ri keladi. Naqd pulsiz hisob - kitoblar deganda korxona va tashkilotlar tomonidan tovar ayirboshlash, xizmatlar ko'rsatish va tovarsiz operasiyalar bo'yicha bir - biriga bo'lgan talab va majburiyatlarini naqd pul ishlatmasdan pul mablag'larini schyotdan - schyotga o'tkazish orqali amalga oshirilishi tushuniladi. Yurtimizda raqamli iqtisodiyot rivojlanib borgan sari pul oborotida naqd pulsiz hisob - kitoblarning ulushi ortib boradi. Shu asosda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 2020 yil 15-fevralda №3/12 son bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob - kitoblar to'g'risida» Nizom qabul qilingan va unga 2022 yilni 07 martda ayrim o'zgartirishlar kiritilgan.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi korxonalari to'g'risidagi Qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining O'zbekiston hududida naqd pulsiz hisob - kitoblarni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va Respublika makonida hisob - kitoblarni uzluksiz bajarilishini ta'minlashga mo'ljallangan. Naqd pulsiz hisob - kitoblarning zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Yalpi ichki maxsulot va milliy daromad xajmining ortib borishi.
2. Tovar aylanishi hajmini o'sishi.
3. Xo'jalik subyektlari o'rtasida hisob - kitob munosabatlarining oshishi.
4. Bank kreditining ayirboshlash jarayonidagi rolini o'sishi.
5. Iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda va hisob - kitoblarda elektron hisoblash texnikasidan, kompyuterlardan keng ko'lamda samarali foydalanishni oshishi.
6. Naqd pulning ko’prok miqdorda oldi - sotdi bilan shug'ullanuvchi ishbilarmonlar qo'liga o'tib ketganligi.
7. Pulning davlat gaznasidan chiqib yana qaytib kelishi jarayonlarida uzilishlarning paydo bo'lishi.
8. Davlatning naqd pul yetishmasligi muammosiga duch kelishi va boshqalar.

Naqd bo'lmagan pul harakati hajmining doimiy o'sib borishi xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega va u quyidagilar bilan belgilanadi:

- xo'jalik sub'yektlarining naqd pulga bo'lgan ehtiyoji keskin qisqaradi;
- o'zaro hisob - kitoblarni amalga oshirish jarayonidagi muomila xarajatlari tejaladi;
- muomiladagi pul mablag'larining xavfsizligi kamayadi;

- hisob-kitoblarni banklar orqali amalga oshirilishi ularning xuquqiy jihatdan qonuniyligini ta'minlaydi.

Bu tartibdagi hisob kitob ko’rinish juda foidali bo’lib ko’rinadi. Lekin bu jarayonga aholining ishchi qatlami va keksalarga bir tomonlama noqulayliklar tug’durmoqda. Aytaylik bir keksa inson nafaqasini plastik kartasiga kelib tushganiligini bilish uchun mahalladan yoki bankdan so’raydi, shunchaki **bank ilovalaridan** foydalanishni bilmaganligi uchun. Kartasiga pul tushganligini bilgach u uyga ro’zg’orliq qilish uchun bozorga boradi. (Biz bilamizki bozorlarda hozirgi kunlarda ham naqt pulda savdo sotiq qilish avjida. Bunga sabab, **bozorlarda ulgurji va chakana savdoda belgilab bo’lmaydigan** qonun qoidalar mavjo’dligidir.) tavar sotib olish uchun u albatta pulni naqd qildirish uchun bank plastiklarini naqt qilish punkitlariga kiradi. O’z-o’zidan nafaqa oluvchi pullari bilan **yashirin iqtisodiyotga** kirib boradi.

Shu boisdan sotuvchi va oluvchining bozorlarda yoki boshqa to’lov qisimlarida erkin savdosini yo’lga qo’yish uchun, fuqorolar davlat soliqlaridan qochmasliklari uchun, ular o’rtasida tashviqotlar va o’quv kurslarini tashkil qilish, bunda soliqchi va bankning malakali xodimlaridan ommaviy axbarot vositalari orqali tushuntirish ishlarini olib borish. Bozor va savdo markazlarida sotuvchilar o’rtasida targ’ibot ishlarini tashkil qilish. Naqt va naqtsiz pul aylanmasini teng yo’lga qo’yish so’raladi.

Bu islohatlar bilinki bizning kelajagimiz uchundir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev A.J, Qayimova Z.A, Boltaev Sh.Sh, Narzieva D.M Pul va banklar O’quv qo’llanma.
2. www.mfer.uz — O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar investitsiyalar va savdo Vazirligining rasmiy sayti
3. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.
4. www.uzreport.com - biznes axborotlari portali.
5. www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi